



NAVOIY VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

NAVOIY VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar-
avgust

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Тел. 79-223-50-43

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1-sentabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 5 718 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 6 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 5 712 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar-avgust oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **8 408,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **109,5 %** ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 551,3 mlrd. so'mni (110,6 % ni tashkil qildi) kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 7 856,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 109,5 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 604,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 118,3 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	8 408,0	109,5
Navoiy sh.	2 592,4	112,7
Zarafshon sh.	864,0	111,7
G'ozg'on sh.	8,2	109,8
<i>tumanlar</i>		
Konimex t.	266,5	108,7
Qiziltepa t.	965,0	108,5
Navbahor t.	511,8	111,4
Karmana t.	1266,6	105,6
Nurota t.	435,0	111,4
Tomdi t.	71,2	108,8
Uchquduq t.	395,4	106,1
Xatirchi t.	1031,9	106,2

2024- yilning yanvar-avgust oylarida 2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan viloyatning Navoiy shahri (112,7 %), Zarafshon shahar (111,7 %) Navbahor tumani (111,4 %) chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-avgust)




So'nggi 5 yillikda (2020 – 2024 - yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda (112,2 %) kuzatildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi 8 408,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 109,5 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining ulushi , 2024 yil yanvar-avgust (foizda)



Ulushi, foizda




Navoiy viloyatida chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Navoiy shahri 30,8 % bilan 2 592,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Navoiy viloyatida chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, G'ozg'on shahri 0,1 % bilan 8,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Navoiy viloyatida chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.


Hajmi, mlrd. so'm





Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 7 856,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 9,5 % ga oshdi. Viloyat miqosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 93,4 % ni tashkil etdi.




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 110,6 % ni tashkil etdi va 551,3 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 6,6 % ulushiga to'g'ri keldi.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)




 Yirik korxonalar


 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha, Karmana tumani (100,0 %), Uchquduq tumani (99,7 %), Tomdi tumani (99,3 %) yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 6,6 % ni tashkil etib, eng katta ulush Navoiy shahri (13,5 %), Zarafshon shahri (10,9 %), Navbahor tumanida (9,1 %) kuzatildi.

6,6 %



93,4 %




 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik




Hududlar kesimida ma'lumot, ming so'mda



2024- yilning yanvar-avgust oylari holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 7 784,4 ming. so'mni (2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 107,5 %) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Navoiy shahri (15 933,7 ming. so'm), Uchquduq tumani (10 035,7 ming. so'm) va Zarafshon shahri (9 719,3 ming. so'm) hissasiga to'g'ri keldi.




Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.

Izoh: Navbahor, Tomdi, Uchquduq tumanlarida va Navoiy, Zarafshon shaharlarida chorva bozori mavjud emas. G'ozg'on shahrida dexqon va chorva bozori mavjud emas.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

Uyushmagan savdo mlrd.so'm	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	604,8	118,3
Navoiy sh.	141,5	127,1
Zarafshon sh.	25,1	115,8
G'ozg'on sh.	-	-
<i>tumanlar</i>		
Konimex t.	27,7	114,1
Qiziltepa t.	59,3	108,5
Navbahor t.	7,5	122,0
Karmana t.	176,5	118,0
Nurota t.	33,6	104,0
Tomdi t.	5,6	123,6
Uchquduq t.	16,3	108,2
Xatirchi t.	111,7	121,8


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.


Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari

(2024- yil yanvar-avgust)

Izoh G'ozg'on shahrida bozorlar mavjud emas














Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2024- yil yanvar-avgust)



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-avgust oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 604,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 118,3 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 361,8 mlrd. so'mni (118,3 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 243,0 mlrd so'mni tashkil etdi (118,2 %).













2024- yilning yanvar-avgust oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 361,8 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p>Qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>194,2 mlrd. so'm</p>  <p>53,7 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>49,1 mlrd. so'm</p>  <p>13,6 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>27,5 mlrd. so'm</p>  <p>7,6 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>14,0 mlrd. so'm</p>  <p>3,9 %</p>	<p>Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>16,1 mlrd. so'm</p>  <p>4,4 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>9,2 mlrd. so'm</p>  <p>2,4 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>10,5 mlrd. so'm</p>  <p>2,9 %</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...)</p> <p>15,1 mlrd. so'm</p>  <p>4,2 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>4,0 mlrd. so'm</p>  <p>1,1 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>16,8 mlrd. so'm</p>  <p>4,7 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari (manzarali va qishloq xo'jaligi)</p> <p>5,3 mlrd. so'm</p>  <p>1,5 %</p>	

2024- yilning yanvar-avgust oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 243,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 202,2 mlrd.so'm, qo'y va echkilar – 38,8 mlrd. so'mni, otlar – 0,7 mlrd. so'mni, parrandalar – 1,1 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>123,4 mlrd. so'm</p>  <p>50,8 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>36,9 mlrd. so'm</p>  <p>15,2 %</p>	<p>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</p> <p>42,0 mlrd. so'm</p>  <p>17,3 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>28,5 mlrd. so'm</p>  <p>11,7 %</p>	<p>Otlar</p> <p>0,7 mlrd. so'm</p>  <p>0,3 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>10,3 mlrd. so'm</p>  <p>4,3 %</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>0,6 mlrd. so'm</p>  <p>0,2 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>0,3 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>	<p>Quyونlar</p> <p>0,2 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>
<p>Qushlar</p> <p>0,1 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1-sentabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 120 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 3 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 117 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	365,9	109,7
Navoiy sh.	128,4	109,9
Zarafshon sh.	62,0	128,0
G'ozg'on sh.	0,1	107,2
<i>tumanlar</i>		
Konimex t.	5,3	108,4
Qiziltepa t.	19,1	86,7
Navbahor t.	47,0	105,2
Karmana t.	50,3	105,6
Nurota t.	6,2	107,9
Tomdi t.	1,7	116,6
Uchquduq t.	20,6	114,1
Xatirchi t.	25,2	106,0

2024- yilning yanvar-avgust oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 365,9 mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 109,7 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 87,9 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, Foizda
Navoiy viloyati	2 583,0	100,0
Navoiy sh.	1 087,8	42,1
Zarafshon sh.	10,4	0,4
G'ozg'on sh.	-	-
<i>tumanlar</i>		
Konimex t.	6,1	0,2
Qiziltepa t.	123,8	4,8
Navbahor t.	13,2	0,5
Karmana t.	1 307,3	50,6
Nurota t.	6,9	0,3
Tomdi t.	0,03	0,001
Uchquduq t.	8,6	0,3
Xatirchi t.	18,9	0,7


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Karmana tumanida(1307,3 mlrd. so'm), Navoiy shahrida (1 087,8 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)



2024- yilning yanvar-avgust oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 2 583,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 109,4 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 980,7 mlrd. so'm (84,3 % ni tashkil etdi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 1 602,3 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 133,8 %) tashkil qildi.


Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o'z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o'zgartirmagan holda jo'natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to'lanadigan yoki to'lanmaganligidan qat'iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi,

mlrd. so'mda



Viloyat bo'yicha 2024- yilning yanvar-avgust oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 2 407,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 10,9 % ga o'sdi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 1 927,0 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 109,3 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 80,1 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024- yil 1-sentabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 1 560 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 3 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 517 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	2 407,0	110,9
Navoiy sh.	1165,0	114,9
Zarafshon sh.	106,6	111,3
G'ozg'on sh.	0,2	103,4
<i>tumanlar</i>		
Konimex t.	8,9	113,9
Qiziltepa t.	240,6	130,9
Navbahor t.	149,3	88,3
Karmana t.	495,1	101,8
Nurota t.	37,6	113,7
Tomdi t.	3,4	111,8
Uchquduq t.	97,4	114,4
Xatirchi t.	102,9	111,1